

SHUHRAT ORIF SHE'RIYATI FONOPOETIKASI

Zaynudinova Gulnoza Anvarjon qizi, Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

PHONOPOETICS OF SHUHRAT ARIF'S POETRY

Zaynudinova Gulnoza Anvarjon kizi, Independent researcher of Fergana State University

ФОНОПОЭТИКА ПОЭЗИИ ШУХРАТА АРИФА

Зайнутдинова Гульноза Анварджон кызы, независимый исследователь Ферганского государственного университета

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taniqli shoir Shuhrat Orif ijodining lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada, asosan, shoir ijodining fonopoetik imkoniyatlari ochib berilgan, fonetik vositalarning badiiy matndagi o'rni o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, fonopoetika, fonetik hodisalar, geminatsiya, assonans, intonatsiya, tinish belgisi, tovush takrori.*

Abstract: *In this article, the linguopoetic features of the works of the famous poet Shuhrat Arif are studied. The article mainly reveals the phonopoetic possibilities of the poet's work, the role of phonetic means in the artistic text is studied.*

Key words: *linguopoetics, phonopoetics, phonetic phenomena, gemination, assonance, intonation, punctuation, sound repetition.*

Аннотация: В данной статье изучаются лингвопоэтические особенности творчества известного поэта Шухрата Арифа. В статье главным образом раскрываются фонопоэтические возможности творчества поэта, изучается роль фонетических средств в художественном тексте.

Ключевые слова: лингвопоэтика, фонопоэтика, фонетические явления, геминация, ассонанс, интонация, пунктуация, звуковой повтор.

KIRISH. Til kishilik jamiyatida nafaqat aloqa, balki tinglovchida emotsional-estetik his uyg'otish vositasi ham bo'lib, nutq jarayonida kishilarga turlich ra'sir ko'rsatadi. Nutqning namoyon bo'lishida fonetik birliklar muhim vazifalarni bajaradi. Shu bois ham dunyo tilshunosligida nutqning fonopoetik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslarning diqqat markazidadir. Matnning fonopoetik xususiyatlarini, fonetik vositalarini monografik o'rganish, leksik-semantik, grammatik vositalar qatorida, tovushlar ning jilolanishi, urg'u, ohang, to'xtam kabi fonetik birliklarning tahhili va tadqiqi bugungi o'zbek tilshunosligi oldidagi muhim masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ma'lumki, tilshunoslardan tomonidan lingvopoetikaning umumiylasalalari ko'p tadqiq qilingan. "Leksik poetika, matn poetikasi hamda fonetik stilistika, fonosemantikaga bag'ishlangan qator asarlarda

tilshunoslarning tovushlar simvolizmi, alliteratsiya, geminatsiya, qofiya ilmiga bag'ishlangan qarashlari ifodalangan. Lingvopoetika sohasida, xususan, fonopoetikada har bir tilning mental va akustik-artikulyatsion tomonlari bir-biridan tubdan farq qilishi ta'kidlanadi. Bunga arab, xitoy, nemis, ingliz va boshqa tillardagi fonetik struktura, urg'u, nutq tempi, ovoz toni, tembr kabilarning o'ziga xos differential belgilari mavjudligi asos bo'ladi" [7.130]. Lisoniy birliklarning emotsional-ekspressiv vazifalari badiiy asarlarda yaqqol namoyon bo'lishini hisobga olsak, mazkur jarayon lingvopoetik tahlil zaruratin yuzaga chiqaradi. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi haqida so'z borganda, uning fonopoetik xususiyatlarini o'rganish lingvopoetik tadqiqotning izchilligi va mukammalligini ta'minlaydi. Fonopoetika poetik matnning fonetik xususiyatlarini tadqiq etuvchi soha sifatida baholanadi. Zero, badiiy matnlarning fonopo-



<https://orcid.org/0009-0006-7973-0023>

e-mail:
gulnozazaynudinova201@gmail.com

etik tahlili bugungi o'zbek tilshunosligi uchun muhim masalalardan biri sanaladi.

Ma'lumki, barcha ifoda vositalari til bilan bog'liq bo'lib, poetika ham nutqiy birliliklardan badiiy shaklda foydalanuvchi soha sifatida e'tirof etiladi. Umuman olganda, har qanday yozma manba (matn) ikkiyoqlama tabiatga ega: bir tomondan, u til tizimiga nisbatan qism, ikkinchi tomondan, muayyan bir individning ijod mahsulidir. Shuning uchun germenevtika oldida bir-biriga bog'liq ikkita vazifa turadi: birinchisi, matndagi lisoniy ifodani muayyan til tizimining uzvi sifatida o'rganish ("grammatik" talqin), ikkinchisi, uning ortida turgan betakror ma'noni anglash ("psixologik" talqin) [3.82].

Ushbu talqinlar esa, aynan, badiiy nutq tahliliga asos bo'lib, poetik matnni ham grammatik, ham psixologik sharhlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Shuhrat Orif ijodida lisoniy birliklarning poetika aktuallashuvini, eng avvalo, fonetik birliklar misolida ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Bu ne qismat bo'ldi,

Bu qanday bitik –

Bir ko 'zim kulgida, biri yig'ida.

Men sizni hech kimga o'xshamay sevdim,

Ketmoq va qolmoqning oralig'ida.

(Sh.Orif. Men asli odammas, yor edim. – B.38) [3].

Mazkur she'riy parchani muayyan til tizimining uzvi sifatida baholasak, tovushlarning ohangdoshlik asosida birikib, she'r o'qilishida ma'lum musiqiy to'lqinni, ritmni yuzaga chiqarayotganini anglash mumkin.

Hozirgi zamon germenevtikasi nuqtayi nazaridan matnning mazmunini tushunishdan avval subyektning ongida doim "tushunishdan avvalgi tasavvur" mavjud.

Ichimda –ko 'zlarim ko 'rinar,

Qo'llarim o'kinmas kir chayib.

Sootni ko 'rsatib boshimda

Qismatim turmaydi irshayib.

(Sh.Orif. –B. 27)

Mazkur misolda obrazlar tizimi, mantiqiy ifoda, fikrlarning gradual ko'rsatkichining yuzaga kelishini – ritm, bo'g'in va turoqlarning me'yoriy to'lqinlanishi, tovushlar garmoniyasi ko'rsatib bergen. Ma'lumki, poetik nutqning qurilish materiali ham aslida fonetik birliklardir. Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi soha hisoblangan lingvopoetika filologik ilmlar tizimida alohida mavqega ega bo'lib

bormoqda [6]. Ta'kidlanganidek, har bir sohaning kichik sathi bo'lganidek, lingvopoetikaning quyi sathi ham fonopoetika hisoblanadi. Shuhrat Orif ijodining fonopoetik xususiyatlari alohida o'ziga xosliklarga ega. Sho'ir ijodida qo'llanilgan lingistik birliklar asosi fonetik unsurlardan iborat ekanligini hisobga olsak, she'riyatdagagi jozibadorlik, ta'sirchanlik, ekspressivlik aynan fonetik birlik orqali ifoda topayotganini ko'rish mumkin. Buni bir necha fonetik hodisalar misolida tahlil qilamiz.

Ohang badiiy nutqning barcha turlarida uslubiy vazifa bajaradi. Badiiy nutqda muhim funksiya bajaruvchi fonetik-fonologik vositalar fonopoetik birliklarni yuzaga keltiradi. "Tovush tempi, tembri, gapirish manerasi, so'zlarni talaffuz etish usullari, ovozning nutq tovushi doirasida va muayyan vaqt birligi davomida tovlanishi sifatida baholanayotgan intonatsiya so'zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga bo'lgan ma'lum bir munosabati (murojaat, xitob, kinoya, gina, achinish, shodlanish, taajjub, g'azab)ni anglatuvchi ifodaviylikning asosiy vositasidir" [7.26]. Uning poetik fikr jozibaliligi ba ta'sirchanligini ta'minlashdagi ahamiyati katta.

Bormisiz, yo 'qmisiz/ - bilmayman,

Lekin men, shubhasiz,/ bor edim.

G'alati ekanim/ tabiiy,

Men asli odammas,/ yor edim...

(Sh.Orif. – B.14).

Bunda lirik qahramon ichki olaming intorlari, ba'zan qat'iy, ba'zan esa beqaror o'ylari, dunyoga va odamlarga munosabati, kinoyasi, ahdi kabilar aynan intonatsion butunliklar orqali reallashmoqda. Ko'rinib turibdiki, poetik nutq intonatsiyasi so'zlovchining kayfiyati, uning ruhiy holati, poetik maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Poetik nutq bo'lagi intonatsion davrlar (ikki fikr o'rtasidagi mustaqil va tugal jumla) va ular tarkibiga kiruvchi intonatsion bo'laklar (intonatsion davr ichidagi intonatsiya jihatdan mustaqil bo'lmagan va ikki pauzadan iborat bo'lgan birlik) dan [8.16] tashkil topadi.

Fonopoetikada bir tovush bilan farqlanuvchi ohangdosh so'zlar juda muhim ahamiyatga ega. Ular bir-biridan faqat bitta tovush bilan farqlanuvchi, turli xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan:

Ey do 'st, qilma kinoya,

Dunyo menga kifoya!

Qo'lini o'paverib,

Qulluqdan horib bo 'ldim.

(Sh.Orif. – B.34).

Bularning har biri mustaqil leksemalar bo‘lsa-da, bir tovushda farqlanayotganligi she’rning ohangdorligini yanada oshiradi.

*Angladim, bahorga atalmaganmiz,
Kuzda tug ‘ilganman, demakki kuzman.
Eng so ‘nggi yaprog ‘im to ‘kilgungacha,
Sen ketgan yo ‘llardan ko ‘zimni uzmam.*

(Sh.Orif. –B.29).

So‘zlovchi, odatda, yuqori ta’sirchanlikka erishish uchun tovushlari uyg‘unlashgan so‘zlarni keltirishi tabiiy, chunki tovushdosh so‘zlar evfoniyanı yuzaga keltiradi. U holda nafaqat mazmun, balki shakl ifodasi ham poetik imkoniyat tarzida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi misralarda ham “z” tovushi orqali evfoniya yuzaga kelishi she’riy nutqning ohangdorligi va jozibasini oshirmoqda.

Poetik matnni tovushdosh so‘zlar bilan boyitishda tovush juftlari ustida olib boriladigan ishlar, ayniqsa, samaralidir. Masalan, **u – o’**:

*Shunchaki ko ‘zlarim ochildi
Bir loyqa daryoga qo ‘shildim.
Bilmasam o’tardi huzurda,
Afsuski, hammasini bildim.*

(Sh.Orif. –B.5)

She’riy matnda unli yoki undosh tovushlarni cho‘zish, almashtirish, orttirish, tushirib qo‘llash vositalarida ham ma’noni kuchaytirishga erishiladi:

*Yaxshi bola edim bolaligimda,
Bulutga ergashib yo ‘lni unutdim.
Baribir siz bunga ishonolmaysiz,
Men sizni har kuni boladek kutdim.*

(Sh.Orif. –B.6)

She’rda “i” tovushining 11 marta, “a” tovushining 10 marta, “b”, “n” va “u” tovushlarining 7 o‘rinda kelishi, shuningdek, “m”ning 6 o‘rinda kelishi evfoniyanı yuzaga keltiradi, shuningdek, fonopoetik mukammallikni, badiiy izchillikni ta’minlaydi.

Badiiy matnda ohangdorlik va ta’sirchanliknini yuzaga keltirishda tovushlar bilan bir qatorda yozuv uchun intonatsion vositalar (tinish belgilari)ning ham alohida o‘rnii bor. Masalan,

*Bir kun arimaydi ko ‘zidagi mung,
Bir kun pichirlashdan tinarmi bu lab?!*
*Ko ‘zguning oldida xijolat tortmay,
Jimgina ketardim Odamga o ‘xshab...*

(SH. Orif. –B.18)

Mazkur baytda shoirning ichki tug‘yonlari, dunyoning betizginligidan charchagan holati gavdalantirilgan. Lirik qahramon bir kun kelib

ko‘zidagi mungning tugashidan umidvor, biroq lablaridan pichir tinib qolishidan xavotirda. Alaloqibat nima bo‘lganda ham, umr nihoyasida haqiqiy Odam bo‘lib ketish saodatini orzulaydi. Bunda so‘nggi misraga qo‘yilgan uch nuqta shoir har bir ketishning davomi nima bo‘lishidan bexabarligi, bu yog‘i taqdирning hukmiga havola ekanligiga ishora bor.

Yana bir e’tiborli jihat, ... (uch nuqta) tinish belgisi Sh.Orif she’riyatining asosiy semantik vazifa bajaruvchi fonetik belgilaridan biri hisoblanadi. Mazkur belgini shoir ijodining asosiy “qurol”i, desak ham bo‘ladi. Shoirning “Men asli odammas, yor edim” nomli kitobidan o‘rin olgan 40 ga yaqin she’rlarining barchasida aynan uch nuqta tinish belgisi qo‘llanilganligi fikrimizni dalillaydi.

Tovush bilan bog‘liq badiiy san’atlarning, she’r unsurlarining turi ko‘p va bularning barchasi poetik nutqning jozibadorligini ta’minlaydi. Fonopoetik tahlil esa bularning har birini chuqur tadqiq etib, ilmiy asoslaydi. Ana shunday vositalardan biri fonetik takror hisoblanadi. Muayyan tovushlarning takrori barcha nutq turlarida ro‘y beradi. Poetik nutq bu takrorlarni tartibga soladi va estetik ta’sirini oshiradi. Mazkur tartiblanish, ya’ni she’riyat shaklan qat’iy lashadi, ma’lum bir me’yorga solinadi, turli uslubiy vositalar bilan shakllantiriladi. “Tovush takrori tushunchasi lingvistikaga dastlab O.Brik tomonidan kiritilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik bu termin poetik nutqdagi unli va undosh tovushlarga nisbatan ham qo‘llanadigan bo‘ldi” [5.89]. Tovush takrori umumiy belgisiga ko‘ra bir paradigmaga birlashsa, ayrim xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

*Devorga suyanib o ‘tarman endi,
Dunyoga suyanish bulutdek mubham.
Yerdeq tebranaman qabog ‘im uchsa,
Yerdeq og ‘irlashib boryapti shubham.*

(Sh.Orif. –B.13)

Yoki

*Yaxshiyam siz borsiz, yaxshiyam,
Sizsiz hayot –quduqning tubi.
Siz –mening oxirgi ilinjim,
Siz menga Tangrining maktubi.*

(Sh.Orif. –B.8)

Mazkur misollarda takrorlar she’rdagi, bo‘g‘indagi tovushlar so‘z boshida takrorlanishi takrori – anafora [2.470] hisoblanib, so‘z ma’nosini kuchaytirishi, ohang jihatdan ajratib ko‘rsatishi,

ma'lum so'zning ma'nosini alohida ta'kidlashi bilan xarakterlanadi.

Umuman olganda, fonetik takrorlar faqat bir xil tovushlarningina so'zboshida takrorlanishi emas, balki so'zning istalgan o'rniда kelishi mumkin:

*Sahrolarga singib ketaverdilar –
Ishoranı kutib samo qa'ridan.*

(Sh.Orif. –B.18)

Bunda "s" tovushi misraning turli o'rnlarida kelsa ham badiiy ohangni ta'minlab, musiqiylikni kuchaytirmoqda.

Badiiy matnda emotsiyal-ekspressivlikni ta'minlashda onomatopeyalar katta ahamiyatga ega. Onomatopeya – poetik nutqda she'r yoki prozadagi tovush hodisalariga badiiy taqlid qilish usuli [1.215] hisoblanadi. Tovush hodisalariga badiiy taqlid qilishni o'rganishga urinishlar qadimgi Grek stoiklari maktabiga oid bo'lib, ular tovush va mazmun aloqadorligini tovushga taqlid (inson faoliyati natijasida tovushlar) asosida tushuntiradilar.

Masalan, quyidagi she'riy parchada tabiat hodisasi ro'y beradigan jarayonda hosil bo'ladigan tovush xususiyatlariga nutq tovushlaridan biri tabiatan mutanosib kelishi kuzatiladi. Shuhrat Orifning

*Shunchaki jilmayib turibman,
Ichimda ming yillik dovullar.
Arshga termilgancha ilhaq jon,
Shovullar, shovullar, shovullar...*

(Sh.Orif. –B.5) va

*Lo'killab qo'ng'iroq chaladi sabrim,
Ko'changdan o'turman, yo'llarimga chiq.
Dunyoni yelkaga ortib jimgina
O'tib borayotir bir dalli oshiq,*

(Sh.Orif. –B.6)

kabi she'rlarida "sh" tovushining tabiatan shovqinli ekaniga ham e'tibor qaratiladi. Shovqin, shoshmoq, shamol yoxud shivir, shiddat kabi so'zlar ifodalaydigan ma'nolardan shovqinli xarakter anglashiladi. Misralarda taqlidiy so'zlar turli ma'no nozikliklari bilan ifodalangan bo'lib, tinglovchiga tovushlarning jarangi yaqqol eshitilayotganday, tasvir go'yo ovoz bilan chizilayotganday tasavvur uyg'otadi. "Jonning shovullashi", "sabrning lo'killashi" kabi lisoniy birliklar aynan tovushlarning ta'sir doirasini ko'rsatmoqda.

Masalan, ijodkorning muayyan poetik maqsadiga ko'ra va tovush tabiatidan, so'z

ifodalaydigan ma'nodan mahzunlik, g'amginlik, umidsizlik angashiladi:

*Shilliquqt singari imillar taqdir,
Soatiga qarab aylanar falak.
Tangri nimaiki yaratmish – bari,
Bizlarni ro'baro' etolmay halak.*

(Sh.Orif. –B.35)

Mazkur misralarda "r" va "l" tovushlarining assotsiatsiyasi lirk qahramonning ruhiy holatini ifoda etadi. Tovushlarga ramziy ma'no berish har bir ijodkorning o'z prinsipiga bog'liq ekanligini ta'kidlasak, Shuhrat Orif she'riyatida "r" va "l" tovushlari mazmunan taqdir yo'llarida og'ringan, chorasisiz, o'z navbatida ma'lum bir hayotiy iqrorga kelgan inson qiyofasini aks ettirishga xizmat qilganini ko'rish mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, poetik nutqning qurilish materiali ham aslida fonetik birliklardir. Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi soha hisoblangan lingvopoetika filologik ilmlar tizimida alohida mavqega ega. Shu jihatdan olib qaraganda, Shuhrat Orif she'riyatida fonopoetik birliklar she'riy matnning poetik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi, tinglovchiga muayyan tushunchalarmi yetkazishda faol xizmat qiluvchi, badiiy matnning musiqiyligini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Fonopoetik vositalar poetik nutqning jozibadorligini ta'minlashga, badiiy ifodaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
- Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1987.
- Ориф Ш. Мен асли одаммас, ёр эдим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. 160 б.
- Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати.– Т.: Akademnashr, 2010.
- Словарь литературоведческих терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1974.
- Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
- Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Филол. фанл. б-ча фалсафа д-ри. дисс. Фарғона, 2019. 130 б.
- Тўйчиев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. Филол.фналари номзоди...дисс. – Тошкент, 1962.